

## **ILK O'RTA ASRLARDA XORAZMNING IQTISODIY MUNOSABATLAR TARIXI**

---

***Ro'zmetova Guli Davronbek qizi***

*Yangibozor tumani 15-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Xorazmning ilk o'rta asrlardagi iqtisodiyoti masalalarini qamrab olgan.

**Kalit so'zlar:** Afrig', Qang' Artav, Artamush, Buyuk Ipak yo'li, Abu Rayxon Beruniy, Vazamar, S.P.Tolstov, Xitoy, Ibn Xordadbek, Savshafan, O'rta Osiyo

Bu davrda Xorazmning iqtisodiy munosabatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ko'pchilik manbalarda uning Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i bo'ylab savdo munosabatlarida mutlaqo yetakchi ekanligi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari, Sharqiy Yevropa va Skandinaviya yarim oroli hududlaridan topilgan ko'plab xazinalar tarkibida musulmon tangalari uchrashi va ular orasida O'rta Osiyoda zarb qilingan tangalarning ko'pligi yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Xorazm iqtisodida ko'chmanchilarning ta'siri doimo sezilib turgan. Xatto mil. avv. III-II asrdan to milodning III asrigacha Qang' davlati tasarrufida bo'lgan Xorazmga ko'chmanchi xalqlar janubdagi o'troq Kushon davlati madaniyatiga qaraganda ko'proq ta'sir qilganligi ko'rinadi. Chunki o'troq dehqonchilik vohasi bo'lgan Xorazmning iqtisodiy taraqqiyotidan Qang' davlati manfaatdor edi. Bu davlat xazinasiga katta miqdorda mablag' tushirishdan tashqari savdo-sotiq ishlarini yanada jonlantirardi. Xorazm Qang' davlati tarkibidagi bir qadar boy va madaniylashgan hudud sifatida bu davlatning nafaqat iqtisodiy qudrati, balki madaniy yuksalishiga xizmat qilgan. Xorazmning Qang' davlatiga siyosiy qaramligining yana bir omillaridan biri, Qang' davlati tasarrufidagi barcha mulklarning hukmdorlari kelib chiqishi chjoau yoki jamuk, (keyingi davrlardagi yabg'ular) sulolasiga mansub edi [5]. Bu esa davlat ichidagi integratsion jarayonlarni izga solib borardi.

Xorazm o'z tabiiy imkoniyatlari asosida rivojlandi. Noqulay geografik o'rni uning iqtisodiy rivojiga to'sqinlik qilmadi. Balki ichki imkoniyatlarni ishga solib, sug'orma dehqonchilik uchun yangi sharoitlar izlab topishni taqazo etdi. Mirishkor xalq o'z imkoniyatlarini ishga solib, dehqonchilik maydonlarini kengaytirdi, yangi-yangi irrigatsiya tarmoqlarini yaratishga kirishdi. Natijada sohada muayyan yutuqlar qo'lga kritildi. O'z ishining bilimdonlari bo'lgan yer egalari mo'l hosil va ichki hamda tashqi savdo evaziga boyib bordilar. Vohalardagi o'ziga to'q boy dehqonlar esa o'z mikrovohalarida ko'plab qasr va qal'alar bunyod etib, shaharsozlik an'analarini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdilar[3].

Iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishiga O'rta Osiyodan o'tgan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy-g'arbiy tarmog'i Xorazm hududidan o'tgani ham ahamiyatli edi. Turli hududlar o'rtasidagi doimiy aloqalarning yo'l qo'yilishi iqtisodiy taraqqiyot omili hisoblanardi. Bu yo'nalishlar o'z navbatida hunarmandchilik va dehqonchilikning rivojlanishiga, ichki va tashqi savdoning o'sishiga, yo'lbo'yi inshootlarining bapo etilishiga, karvonlarga xizmat qiladigan maxsus tarmoqning shakllanishiga, savdo-sotiqdan olinadigan boj to'lovlarining joriy etilishiga imkon yaratardi. Karvon yo'llarining xavfsizligi ayniqsa, Xorazm mintaqasi uchun muhim edi. Mintaqaning ayrim yo'nalishlari, xususan, dasht va cho'llardagi hududlaridagi yo'llarda talonchilik va qaroqchilik mavjud edi. Bunday yo'nalishlarda savdo karvonlari va yo'lovchilarni ayrim hollarda jiddiy muammolar kutib turardi[4].

Kushonlar davrida Buyuk ipak yo'lining to'la shakllanib bo'lishi ham savdo-sotiq rivojiga turtki bo'ldi. Bu davrda ayniqsa, Buyuk ipak yo'lining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi xalqaro savdo aloqalari gullab yashnadi. Ya'ni bu davrdagi savdo yo'llari Sharqda Xitoy bilan o'rnatilgan va Xitoyga O'rta Osiyodan jun matolar, gilam, taqinchoq, lazurit, zotdor otlar olib ketilgan, Xitoydan esa ipak matolar, temir, nikel, yung, choy, qog'oz, porox keltirilgan. Janubdagi savdo aloqalari esa Hindistongacha borgan va bu yerdan O'rta Osiyoga turli ziravorlar keltirilgan. Hindistonga boruvchi yo'l balandlikda joylashgan tor, osma yo'llar borligi sababli "osma dovon" deb ham atalgan. G'arbdagi savdo aloqalari Eron orqali o'tib, Suriya va Rim bilan amalga oshirilgan. Bu yo'nalishda Xitoy ipaklari oltin kabi juda qadrlangan. Shimolda Xorazm orqali Sharqiy Yevropa bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan [2].

Pul tizimining ham yo'lga qo'yilgani Xorazm iqtisodining shu davrda rivojiga juda katta hissa qo'shganligidan dalolat beradi, Tadqiqotchilar orasida Afrig'iylar sulolasi vakili bo'lgan Savshafan 751 va 762-yilda pul islohoti o'tkazgani haqida qarashlar mavjud[1]. Bu islohot natijasida tanganing old tomonida sug'diy yozuvida hukmdor ismi bitilgan 3,2 gr og'irlikdagi kumush tangalar zarb qilina boshlangan. Bu tangalarda qadimgi xorazmiy yozuv bilan birga sug'diy yozuvda bitilgan yozuvning ham aks ettirilishi sharqiy mintaqalar bilan savdo munosabatlari ancha rivojlangani va Xorazm tangalari xalqaro pul sifatida O'rta Osiyoning sharqiy mintaqalari Xitoyning g'arbiy hududlarida tarqalganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda Xorazmning juda qadimdan Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini Volgabo'yi va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan bog'lovchi markazlardan biri bo'lganligi bu hududni rivojiga juda katta xissa qo'shgan. Xorazmning Buyuk ipak yo'lida qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini, yarim qimmatbaho buyumlar (feruza, serdolik toshlari) bilan savdo sotiq ishlari olib borishi uning iqtisodi yuksalishiga katta turtki berganligidan dalolat beradi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yhati**

1. Fedorov M. Money circulation in early-mediaeval period (6<sup>th</sup>-first half of 8<sup>th</sup> centuries AD). Oriental Numismatic Society Newsletter, 2004, No. 179. – P. 18.
2. Великий Шелковый путь и мировая цивилизация / Ответственный редактор: акад. А.Р. Мухаммеджанов. – Ташкент, 2002. – Б. 9.
3. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. С.98.
4. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қарвон йўлларида хизмат кўрсатиш тизимининг шаклланиши ва ривож. // O'zbekiston tarixi, 2008, №1. Б. 3-5.
5. Смирнова О.И. К вопросу о среднеазиатских правящих домах (китайское чжао-у) // Краткое сообщения института народов Азии. Выпуск 39.-М. ИВЛ, 1963. С.10-19.